

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilorom Salohiy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sodiqov Qosimjon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Binnatova Almaz Ulvi

f.f.d., professor (Ozarbayjon)

To'xliyev Boqijon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shodmonov Nafas

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Asadov Maqsud

f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Jo'raqulov Uzoq

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Funda Toprak

f.f.d., professor (Turkiya)

Nabiulina Guzal

f.f.d., professor (Tatariston)

Yusupova Dilnavoz

DSc, professor (O'zbekiston)

Sirojiddin Xo'jaqulov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Rahim Ibrohim

f.f.d., professor (Afg'oniston)

Turobov Abdurahim

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhitdinova Badia

DSc, professor (O'zbekiston)

Muhammadiyev Ahadjon

DSc, dotsent (O'zbekiston)

Suvonova Jumagul

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatilla

y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)

Abdullayeva Albina

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Nurova Gulchehra

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Sultanov Tulkin

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ubaydullayev Normuhammad

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ruzmanova Roxila

dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)

Narziyeva Ma'mura

PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam

t.f.d., professor (O'zbekiston)

Sirojiddinov Shuhrat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Eshqobil Shukur

*O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)*

Rixsiyeva Gulchehra

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Benedek Peri

f.f.d., professor (Vengriya)

Olimov Karomatillo

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shomusarov Shorustam

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dyu Rye Andre

f.f.d., professor (Fransiya)

Hamroyev Juma

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Aftondil Erkinov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Hasanov Shavkat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Umurova Go'zal

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Xalliyeva Gulnoz

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Alim Labib

f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ..... | 7 |
| 2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)... | 15 |
| 3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA)..... | 21 |
| 4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA..... | 30 |
| 5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA..... | 37 |
| 6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA..... | 43 |

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI


| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI..... | 48 |
| 2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI..... | 58 |
| 3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI..... | 70 |
| 4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI..... | 79 |
| 5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI..... | 85 |
| 6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI..... | 92 |

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI..... | 99 |
| 2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI..... | 105 |

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR..... | 112 |
| 2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI..... | 122 |




Sherxon QORAYEV,

Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: sherxonqorayev@gmail.com

**O‘ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI
(XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING “NAVOIYXONLIK”
KECHALARI MISOLIDA)**

For citation: Qorayev Sherxon. TRENDS OF NAVOIYKHONLIK IN UZBEK KHANATES (ON THE EXAMPLE OF “NAVOIYKHONLIK” EVENINGS OF KHIVA KHAN MUHAMMAD FERUZ) . Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412093>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola xorazmlik shoir va bastakor Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon huzurida tashkil etilgan “Navoiyxonlik” kechalari va ularning ishtirokchilariga bag‘ishlanadi.

Ushbu yig‘inlarda boshqa saroy shoirlari qatori Pahlavonniyoz Mirzaboshi nomi bilan mashhur bo‘lgan Komil Xorazmiy ishtirok etib, Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari va payrav g‘azallarini o‘qib bergan.

Feruz va Komil Xorazmiy ishtirokida o‘tkazilgan bunday adabiy kechalar mumtoz adabiyot va musiqa san’ati rivojiga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Kechalik, shoirlar, dilnavoz g‘azallar, taxmislari, pozachi.

Шерхон КОРАЕВ

Доцент Международного инновационного
университета города Карши,

доктор философии (PhD) по филологическим наукам.

E-mail: sherxonqorayev@gmail.com

**ТЕНДЕНЦИИ НАВОИЙХОНЛИК В УЗБЕКСКИХ ХАНСТВАХ
(НА ПРИМЕРЕ «НАВОИЙХОНЛИК» ВЕЧЕРОВ ХИВИНСКОГО ХАНА
МУХАММАД РАХИМХАНА ФЕРУЗА)**

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена вечерам «Навоиханлик» и их участникам, организованным при хане Хивы Мухаммад Рахимхане Ферузе по инициативе хорезмского поэта и композитора Камиля Хорезми.

Среди других придворных поэтов в этих собраниях принимал участие Камил Хорезми, известный как Пахлавоннияз Мирзабаши, который читал свои мухаммасы и последующие газели, основанные на газелях Алишера Навои.

Подобные литературные вечера, проводимые участием Феруза и Камиля Хорезме, служили развитию классической литературы и музыкального искусства.

Ключевые слова: Кечалик, поэты, душевные газели, тахмис, позачы.

Sherxon QORAYEV,

Associate Professor at the International Innovative University in Qarshi,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

E-mail: sherxonqorayev@gmail.com,

**TRENDS OF NAVOIYKHONLIK IN UZBEK KHANATES
(ON THE EXAMPLE OF “NAVOIYKHONLIK” EVENINGS OF KHIVA KHAN
MUHAMMAD FERUZ)**

ABSTRACT

This scientific article is dedicated to the “Navoi Khanate Nights” and their participants, organized under the patronage of the Khan of Khiva, Muhammad Rahimkhan Feruz, at the initiative of the Khorezm poet and composer Kamil Khorezmi.

Kamil Khorezmi, known as Pahlavonniyaz Mirzabashi, participated in these gatherings and recited his muhammas based on Alisher Navoi's ghazals.

Such literary evenings, held with the participation of Feruz and Kamil Khorezmi, served the development of classical literature and musical art.

Keywords: evening, poets, soulful ghazals, tahmis, poser.

Kirish. Xiva xonligi manbalarida keltirilishicha, Chor Rossiyasi bosqinidan so‘ng tobe hukmdorga aylangan Feruzshoh tushkunlikka tushib, “xonanishin” bo‘lib qoladi. Ana shunday paytda shoir va bastakor Komil Xorazmiy va boshqa amaldorlar hukmdorga she‘riyat va musiqa kechalari o‘tkazib, ovunishni – ko‘ngil yozishni maslahat beradilar: “Muhammad Rahimxon soniy Xorazm o‘lkasida o‘zidan boshqa kuchli va yot bir quvvatni ko‘rgach, bir xili zamonlar mutta‘sir bo‘lib yurdi. O‘zini tasalli qilajak hech bir mashg‘ulot topmoqdin ojiz edi. Biroq oning atrofidagi odamlar, xususan, musiqashunos Pahlavonniyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) xonning bu holini anglab, oni majlislar tuzmakka qiziqtirdi [9:12]. Shundan so‘ng Muhammad Rahimxon har bir iqtidorli, ilmi shoir kishilarga g‘amxo‘rlik qilib, saroyda “Navoiyxonlik” bazmlari uyushtira boshladi.

Asosiy qism. Shunday qilib, uzoq-yaqindan kelgan shoirlar va xonanda-yu sozandalar xon majlislarini bezay boshladilar: (Xodimning yozishicha,) “(Feruz) Matmurod devonbegiga: – Kechalikka (kechga) ziyofat (adabiy majlis) qilamiz. Bu ziyofatga sozanda Yoqub doirachini, amaldorlardan Rahmatullo yasavulboshini, Muhammad Rizo Ogahiyini, Mehtar boboni, Xudoyor qushbegini chaqir, o‘zing ham ishtirok etasan, – deb buyruq bergan. Bu ziyofatning boshlig‘i Matmurod devonbegi bo‘lg‘on....

Muhammad Rahimxon ikkinchi Matmurod devonbegiga tag‘in: – Madrasadagi o‘qib yurgan mullalardan soz biladurg‘oni bo‘lsa topib kel, – deb aytgan. Matmurod devonbegi Polvonniyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy)ni topib kelgan. Polvon Mirzaboshi ziyofatga ishtirok eta boshlagach, ziyofat rivojlanib ketgan.

Polvonniyoz Mirzaboshi shoir bo‘lib, shu ziyofatlarda Navoiyning dilnavoz g‘azallaridan o‘qilgan, ziyofatda ichkilik ham avj olg‘on [7:29]. Pirovardida, musiqa va she‘riyat kechalarini o‘tkazish Feruzning doimiy odatiga aylandi. Bola baxshining hikoya qilinishicha, Xiva xonligi muzofotida 32 ta sozanda qo‘sh (guruhi) faoliyat ko‘rsatgan. Ularning har biri o‘z dastur va mahoratini namoyish etib, shaxsan Xon nazaridan va majlislaridan o‘tgandan so‘ng, to‘y-hashamlar, bazm-u ziyofatlarda yurishga ijozat berilgan [9:7-8]. Feruz adabiy majlislarida ko‘plab san‘atkorlar, xonandalar, sozandalar ishtirok etgan. Tazkiranavis Bobojon Tarrohning yozishicha, “Muhammad Rahimxon o‘n sakkiz yoshinda Xorazm podsholig‘i taxtiga o‘turub, arzi dod vaqtinda xalqning arzini so‘rab, oqshomliqda ziyofat qilishg‘a boshlag‘on. Bu ziyofatlarning boshlig‘i Matmurod Devonbegi bo‘lg‘on. Muhammad Rahimxon ikkinchi butun xarajatlarni qilish haqida Devonbegiga buyruq

bergan. Shuningdek, Xon Matmurod Devonbegiga madrasa ahli ichida xushovoz mullalar va hofizlar bo'lsa, topib kelishni topshirgan. Matmurod Devonbegi buyruq bo'yicha axtarib, hofizlardan Tolib Mahzum, Avazberdi Eshon o'g'li, Xudoyberdi Mahzum, Sa'dulla Xatiblarni topib kelgan.

Muhammad Rahimxon ikkinchi Matmurod Devonbegiga, “yana top”, – deb buyruq bergan. Matmurod Devonbegi Komil Xorazmiy, Qozi Muhammad Karim o'g'lini topib olib bergan. Komil Xorazmiy ham shoir, ham musiqashunos bo'lg'on. U Muhammad Rahimxon ikkinchiga Navoiyning g'azallaridan o'qib, soz qilib bergan. Navoiyning dilnavoz g'azallari xonga ta'sir qilib, Atoyini esa o'ziga ustoz bilib, shoirlik qilmoqqa qarab, yigirma yoshlarida she'r yoza boshlagan. Shoirlik qilmog'iga sabab shu ziyofat va Komil Xorazmiy bo'lgan [7:17-18]”. Binobarin, Laffasiyning yozishicha, Feruzning huzurida (majlislarida) doimiy yetti-sakkiz nafar go'yandalar soz, tambur, g'ijjak, bulamon mashq etib o'lturganlar. Masalan, Muhammad Yoqub xorrat – devon va Muhammad Yoqub pozachi, Avaz dorchi kabilar xizmatda bo'lgan [1:25]”. “Navoiyxonlik” kechalariga majlis ahli bo'lgan san'atkorlardan 1. Muhammad Yoqub Xorrat; 2. Muhammad Yoqub pozachi; 3. Avaz dorchi; 4. Qalandar do'nmas; 5. Polvon usta; 6. Qanbar bobo; 7. Xudoybergan muhrkan; 8. Rizo baxshi; 9. Suyar baxshi; 10. Abdurahmonbek; 11. Abdulla Mejana; 12. Yoqub dorchi; 13. Usmonjon; 14. Abdujabbor mahzum; 15. Xudoyberdi Maxdum; 16. Yoqub bulomonchi; 17. Buva bulomonchi; 18. Sariq Mextar; 19. Ernafas baxshi; 20. Avaz bola; 21. Nurillo baxshi; 22. Rizo baxshilar [9:34-40] nomlarini keltirish mumkin.

Natija va muhokama. Feruzning “Navoiyxonlik” bazmlariga, adabiyot, she'riyat va san'atga berilishida Ogahiy, Komil Xorazmiy va Tabiiy kabi atoqli olim va shoirlar kuchli ta'sir ko'rsatganlar [7:143].

Umuman olganda, saroyda ijod qilgan shoirlarning hammasi Navoiyga ergashganlar, she'rlariga naziralar yozganlar, muxammaslar bog'laganlar. Ogahiy kabi shoirlarning Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari Navoiyxonlik bazmlarida o'qilgan:

**Falakkim yaxshilar bazmida qadrimni baland etmas,
Dami yo'qkim yamonlar majmaida mustamand etmas,
Bu hasratdin ko'zim ashki yo'lin bir lahza band etmas,
Mani man istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,
Mani istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas...
Savod zulfini ko'rgach yumar Ogahiy tun deb ko'z,
Yuzig'a nozir o'lg'och ham tutar qo'l birla kun deb ko'z,
Ko'ngul, hayratg'a qolma ko'rmas oni ne uchun deb ko'z,
Ul oy o'tlug' yuzin ochsa Navoiy tegmasun deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra pisand etmas [11:121].**

Ma'lumki, “Qo'ng'irotlar sulolasining Alisher Navoiyga ergashish adabiy prosopografiyasining boshida Shermuhammad Munis (1778 – 1829) turgan edi. Shoir Navoiyni ma'nan ustoz va piri deb biladi. Aynan Munis ijodi Ogahiyning Navoiy ijodiga bog'lovchi ko'prik vazifasini bajargan. Chunki Munis Muhammadrizo Ogahiyning ustozigina emas, rahnamosi ham bo'lgan. Ogahiy Navoiy singari otadan erta yetim qolgan. Hazrat Alisher tarbiyasiga tog'alari – yetuk shoirlar Mirsaid Kobuliy va Muhammadali G'aribiylarning ta'siri kuchli bo'lganidek, Munis ham Muhammadrizoning tog'asi sifatida uning hayoti va ijodida yetakchi shaxs edi. U “dastparvardai Munis” ekanligini, tog'asining devoniga o'xshatib debocha yozganidan bilsa bo'ladi. Muhammadrahimxon I Munisga, Husayn Boyqaro (1469 -1506) Alisher Navoiyga homiylik qilganidek, Muhammadrahimxon II Ogahiyga rahnamolik qilgan. Shuning natijasida Munis saroy mushoiralariga jiyani Ogahiyning jalb qila olgan.

Ogahiy lirikasi (Navoiy kabi) yangi davr “qayta quruvchisi” edi, uning so'zlaridan foydalanib, Muhammadrahimxon II Feruz (1864-1910) Xorazm adabiy muhitini yaratgan [https://share.google/hdV9MHhSNtSPMGWfJ]”.

Darhaqiqat, Shermuhammad Munis o'zbek adabiyotida Navoiy an'analari davom ettirdi, shoirlar sultoniga ergashib g'azallar yozdi, uning she'rlariga muxammaslar bog'ladi:

**Bu kecha sahni gulustonda bizing jononadur,
Ilkida jomu surohiy, shevasi mastonadur,**

**Boda tobidin yuzi har lahza gul – gul yonadur,
Shu'lai ruxsorig'a ko'nglum qushi aytonadur,
Tong emas gul sham'iga bulbul agar parvonadur...
Toki soldi Munisi bechora ko'ngliga yaro,
Novaki mujgoni birla ul ko'zi qoshi qaro,
Zohir o'lg'on holatimni bir – bir etsam mojaro,
Ey Navoiy, o'yla voqi' dostonim ishq aro,
Kim bu dam Farhodu Majnun qissasi afsonadur [10:309].**

Tarixda shoir, bastakor, tarjimon, sozanda va davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Komil Xorazmiy ham Navoiy ijodini sinchiklab o'rgangan, uning ruhiga kirgan va poetik ijodda “Navoiyvor” qalam tebratgani bilan faxrlangan:

Netong Komil Navoiy yonglig' o'lsa soz aro sarmast.

Shuning uchun Komil Xorazmiy devoniga kirgan muxammaslarning aksar qismi Navoiy g'azallariga bog'langan. Navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovga ko'ra, Komil o'z buyuk salafining fikrlarini yanada chuqurlashtirishga, o'z zamoniga tadbiiq etishga, obrazlarini rivojlantirishga harakat qilgan [8:8]. Masalan, Navoiyning o'z davridagi vafosiz odamlardan shikoyat qilib yozgan “Bo'lmangiz” radifli g'azaliga bog'langan muxammas bunga yorqin namuna bo'la oladi.

**Ohkim, har kimga molu jonimi qildim fido,
Qildilar yaxshilig'imga ming yomonlig' borho,
Ahli olamdin vafo aylab tama', chekmang jafu,
Ey xarobat ahli, yo'q insonda imkoni vafo,
Mastlig'din dev o'lung, zinhor odam bo'lmangiz.**

Adabiyotshunos Begali Qosimovga ko'ra, Navoiyning “Bo'lmangiz” g'azaliga taxmis bog'lagan Komil har bandda ulug' shoir g'azaliga shunday misralarni zargarona payvand qiladiki, natijada ular bitta qalam sohibi ijodining mahsulidek yangraydi. Bu hol taxmis bog'lagan shoirning ulkan mahoratidan, o'z salafi egallagan yuksak cho'qqiga ko'tarila olganidan dalolatdir.

**Garchi Komil bo'ldi furqatdin alil, ey ahli vasl,
Hajr o'tig'a tushti andog'kim Xalil, ey ahli vasl,
Lek topti yor vaslig'a dalil, ey ahli vasl,
Gar Navoiy hajr aro bo'ldi zalil, ey ahli vasl,
Endi navbat sizgadur, muncha muazzam bo'lmangiz [8:175].**

Komil Xorazmiy Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslarini saroydagi barchasi “Navoiyxonlik” bazmlarida o'qigan.

**Ey soching, jon qushlari qaydig'a mahkam silsila,
O'lgali bu xastaning hajringda yetti bir yila,
Va'dayi vaslingni topmay, Komil, aylar ko'p gila,
Deb eding o'lsa Navoiy tirguzay vaslim bila,
Biltur o'lgonlar bila oni barobar bo'ldi tut.**

“Navoiyxonlik” kechalarida barcha xorazmlik saroy shoirlari qatori Komil ham o'z muxammaslari va payrav g'azallarini majlis ahli hukmiga havola etib borgan:

**Baqo dashtig'a kim ozimdururlar jumla xosu om,
Emaslar puyadin bir dam farog'at onda subhi shom,
Gar uyqu, gar uyg'oqlik yo'q ango gom urmamoq hangom,
Baqo dashti nechuk qat' o'lmasun, aylab murur ayyom,
Ki har manzil ango bir kundurur, hardam ango bir gom [8: 180].**

Xorazmlik shoirlar qatori Komil Xorazmiy ham ma'naviy ustoz Navoiy ijodini nihoyatda qadrlagan. Hatto, Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi Xorazm toshbosma nashriga so'zboshi yozgan. Komil Xorazmiy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, mumtoz kuylarni “Nota”ga tushirgan. Dunyo musiqashunosligida “Xorazm tanbur chizig'i” deb e'tirof etilgan nota yozuvi mumtoz kuylarning zamonlar osha avlodlarga asl holidan yetib kelishi uchun katta xizmat qilgan.

Ahmad Tabibiy tazkirasida Komil Xorazmiy kabi 30 nafar shoir ijodidan namunalar keltirilgan.

“Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobida adabiy majlis ahli soni 30 shoir va 40-50 chamasi muharrir – kotiblardan iborat bo‘lganini yozgan; “Feruz zamonasida o‘ttiz chamasida shoir, 40-50 chamasida muharrir (kotib, xattot)lar yetushgan bo‘lsa ham iqtidorlilari Ahmadjon Tabibiy, Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo, Avaz O‘tar O‘g‘li, Muhammad Rizo Ogahiy, Pahlavonniyoz Mirzoboshi Komil, Yusuf Maxdum Rojiylar sanalgan.

Xon o‘yin – kulguga moyil bo‘lib, har qachon yonida Xivaning muqallid, masxarabozlari, xonandalari va sozandalari, shoirlari bo‘lar edi [9:34]”. Aniqroq qilib aytganda, atrofidagi shoirlar va san‘atkorlar ta‘sirida “Xon hazratlari (Feruz) she‘rga ko‘p zavq paydo qilib erdilar. O‘zlari ham burundan Feruz taxallusi bila mutaxallis bo‘lub, she‘r aytur erdilar. So‘ngroq she‘rg‘a ko‘proq haris bo‘ldilar. Har kimning she‘r aytmoqg‘a sahl qobiliyati bo‘lsa, nav‘i she‘rlarni aytib dargohi oliyg‘a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam-besh qirg‘a yovuq bordi [3:256]”. Manbalarga asoslanib, Feruzning “Navoiyxonlik” kechalarida quyidagi nadim – shoirlar ishtirok etgan. Nazm ahlidan 1.Muhammad Rizo Ogahiy, 2, Iso to‘ra Xusraviy, 3. Muhammad Yusuf Rojiiy, 4.Ravnaqiy, 5. Muzaffar Xojaiy, 6. Nishotiy, 7. G‘oziy, 8. Ziyrakiy, 9.Komil Xorazmiy, 10. To‘ramurod to‘ra Murodiy, 11.Sayyid Homid to‘ra Komyob, 12. Isfandiyorxon Farrux, 13.Sayyid Nosir to‘ra Sultoniy, 14.Rahmonquli to‘ra Sodiq, 15. Sa‘dulla to‘ra Sa‘diy, 16.Otabek to‘ra Oqil, 17.Muhammad Yusuf Bayoniy, 18. Muhammad Yoqub xoja Xolis, 19. Sayyid Asad to‘ra Asadiy, 20.Sayyid G‘oziy to‘ra G‘oziy, 21.Muhammad Rasul Mirzo, 22.Husayn Muhammad Noziriy, 23. Shayxnazarboy Shinosiy, 24. Davlatmurod mahram G‘ulomiy; 25. Otanazar Mutavalli Kamoliy; 26. Abdurasul Pur Komil; 27. Ahmadjon Tabibiy; 28. Avaz O‘tar o‘g‘li; 29. Muhammad Komil Devoniy; 30.Muhammad Niyoz devon Umidiy; 31.Muhammadnazar maxsum Xayoliy; 32. Inoyatulla Inoyatiy; 33. Bobojon tarroh devon Xodim; 34. Bolta devon Nadimiy; 35. Muhammad Yusuf devon Chokar; 36. Muhammad Husayn devon Mutrib; 37. Nurjon Botir Bahodiriy; 38. Xudoybergan Oxund mufti Ojiziy; 39. Yusuf Hoji Oxund mufti Doiy; 40.Muhammad Sharif Haqiriy; 41. Yusuf Darroz Oxund Yusufiy; 42. Ibodulla Oxund Xokiy; 43.Otaniyoz Qora Oxund Niyoziy; 44. Habibulla Oxund Habibiy; 45.Muhammad Rahim Rog‘ib; 46. Iso Oxund Qone‘; 47. Muhammadniyoz Maxsum Muznib; 48. Abdurazzoq Maxsum Haqiriy [1:120]; 49. Ilyos Mulla Muhammad Yusuf o‘g‘li So‘fi; 50. Mutrib Xonaxarobiy; 51. Safo Mug‘anniy; 52. Otajon to‘ra Komronlar Muhammad Rahimxon Feruz “Navoiyxonlik” kechalarida qatnashib, mushoiralar olib borishgan.

Xulosa. Muxtasar aytganda, Muhammad Rahimxon Feruz, Ogahiy va Komil Xorazmiylar ishtirokida o‘tkazilgan “Navoiyxonlik” kechalari mumtoz adabiyotimiz va musiqa san‘atimiz rivojiga xizmat qilgan. O‘z davrida bunday yig‘ilish xonlik ma‘naviy hayotida muhim rol o‘ynagan. Bunday kechalar yosh shoirlarning tanilishiga, iste‘dodlarning rivojlanishiga hamda ular yozgan asarlarning xonlikda keng tarqalishiga olib kelgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Laffasiy. Tazkirai shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. – B.27.
2. Feruz gulshani. – T.: Mumtoz so‘z, 2016. – B .17-18.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994. – B.93.
4. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. – T.:Kamalak, 1991. – B.255.
5. Guseynov G. Sharqdan ko‘tarilgan to‘fon. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: L.Abdrimova. – Toshkent, 2020. – B.5.
6. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. – Toshkent, 2009. – B.153.
7. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994. –B.33-34.
8. Komil. Devon. Nashrga tayyorlovchilar A.Hayitmetov, V.Mo‘minova. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1975. – B.224.
9. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi.Nashrga tayyorlovchi B.Matyoqubov. – T.:Yozuvchi, 1998. – B.60.

10. Shermuhammad Munis. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Y.Yusupov. – T.: Badiiy adabiyot, 1957. – B.309-310.
11. Muhammad Rizo Ogahiy. Mulk-u millatg‘a emin o‘lsa agar ogohlar. She‘rlar. – T.: Adabiyot, 2022. – B.128.
12. Karayev Sh. The History of Literary Evenings of Khiva Khan Muhammad Rahim Khan Feruz//Procedia of Philosophical and Pedogogical Sciences.2023 yil fevral.-P.64-67.
13. Qorayev Sh. O‘rta asr manbalarida o‘zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). – Qarshi: Intellekt, 2023. – B.148.
14. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. – Qarshi: Intellekt, 2023. – B .206.
15. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. – Qarshi: Ilm-fan va ma‘naviyat, 2024. – B.310.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru